



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI**

A large, stylized arrow graphic is the central focus of the cover. It is composed of a blue arrow pointing upwards and to the right, with a thick orange shadow or base underneath it. The background of the cover is a collage: the top part shows a person in a suit with a grid overlay and a line graph; the middle part shows a person's hands writing in a notebook with glasses nearby; the bottom part shows a large industrial factory with smokestacks and pipes.

**O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASINING SANOAT  
ISHLAB CHIQRISHI**


**2022- YIL YANVAR-FEVRAL  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**

## O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-fevral oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida respublika korxonalaridan 66,7 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 107,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 79,0 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 1,3 %, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 7,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 15,8 % ga o'sishi kuzatildi. Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 0,1 % ga pasayish kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,5 trln. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,3 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	601,5	878,6	277,1
Neft, ming t.	129,2	118,3	-10,9



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	9 074,9	8 915,4	-159,5
Gaz kondensati, ming t.	241,5	229,9	-11,6

### Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52,7 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,0 % ni tashkil etdi.


2021- yil yanvar-fevral

78,8 %

2022- yil yanvar-fevral

79,0 %

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,8 % ni (2021- yilning yanvar-fevral oylarida – 1,6 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 21,1 % (18,3 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 37,9 % (41,7 %) va quyi texnologiyalisi – 38,2 % (38,4 %)ni tashkil etdi.






Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 17,2 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 134,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 28,4 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,5 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,6 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,8 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,8 %)ni tashkil etdi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*

#### Dizel yoqilg'isi




2020- y. 2021- y. 2022- y.

#### Avtomobil benzini




2020- y. 2021- y. 2022- y.

#### Sement



2020- y. 2021- y. 2022- y.

#### O'simlik yog'i (tozalangan)



2020- y. 2021- y. 2022- y.

#### Pishloq va tvorog




2020- y. 2021- y. 2022- y.

#### Yumshoq bug'doy va spelta uni




2020- y. 2021- y. 2022- y.


## Pivo




## Aroq




## Uzum vinosi




## Tamaki mahsulotlari



## Paxta chigiti



## Kalava ip



2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 196,0 ming tonna avtomobil benzini (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 5,8 % ga oshgan), 92,9 ming tonna kalava ip (4,6 % kamaygan), 18,4 mln. litr pivo mahsulotlari (15,8 % ga kamaygan) hamda 286,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (12,2 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, dona	22 376	39 922	17 546
Yuk avtomobillari, dona	573	425	-148
Avtomobil dvigatellari, ming dona	14,3	32,8	18,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	326,3	286,6	-39,7
Paxta tolasi, ming t.	163,2	133,1	-30,1
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	37,1	21,0	-16,1

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

**Yuk avtomobillari ishlab chiqarish sanoati**

Respublikada 2022- yil yanvar-fevral oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 425 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,8 % ga kamaygan.



636 dona

2020- yil

571 dona

2021- yil

425 dona

2022- yil



81,3 %

2020- yil

89,8 %

2021- yil

74,2 %

2022- yil

**Avtobus ishlab chiqarish sanoati**

Respublikada 2022- yilning yanvar-fevral oylarida 68 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 65,9 % ga ko'paygan.



136 dona

2020- yil

41 dona

2021- yil

68 dona

2022- yil



70,1 %

2020- yil

30,1 %

2021- yil

165,9 %

2022- yil



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

**Avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish sanoati**

*Respublikaning mashinasozlik sanoatida 32,8 ming dona dvigatellar ishlab chiqarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 m. oshgan.*



42 138 dona

2020- yil

14 255 dona

2021- yil

32 808 dona

2022- yil



129,1 %

2020- yil

33,8 %

2021- yil

2,3 m.

2022- yil

**Transformatorlar ishlab chiqarish sanoati**

*2022- yilning yanvar-fevral oylarida jami 818 dona transformatorlar ishlab chiqarildi, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,7 % ga oshgan.*



65 dona

2020- yil

665 dona

2021- yil

818 dona

2022- yil



25,2 %

2020- yil

76,1 %

2021- yil


125,7 %

2022- yil

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


“Sendvich” panellarini ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-fevral oylarida jami 99,0 t. “sendvich” panellari ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 93,4 %\* ga kamaygan.



228,4 t.

2020- yil



112,5 %

2020- yil

443,1 t.

2021- yil

3,9 m.

2021- yil

99,0 t.

2022- yil

6,6 %\*

2022- yil

\*2022- yil sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasi bo‘yicha

Akkumulyator ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-fevral oylarida mashinasozlik sanoatida, jami 114,2 ming dona akkumulyatorlar ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 33,6 % ga ko‘paygan.



111,1 ming dona

2020- yil



89,5 %

2020- yil

85,5 ming dona

2021- yil

77,0 %

2021- yil

114,2 ming dona

2022- yil







133,6 %

2022- yil

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida 10 787 dona “Cobalt” (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 76,1 % ga oshdi), 2 902 dona “NexiaT-250” (10,5 % ga kamaydi), 12 340 dona “Lacetti-Gentra” (4,2 m. ga oshdi), 890 dona “Spark” (14,0 % ga pasaydi), 3 720 dona maxsus yengil avtomobillar (3,1 m. ga oshdi) hamda 9 283 dona “Damas”(18,4 % ga oshdi) avtomobillari ishlab chiqarildi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, suv muhitida, t.	2 417,4	2 578,9	161,5
Portlandsement, ming t.	1 418,0	1 197,4	-220,6
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	1 737,9	1 665,9	-72,0
Dizel yoqilg'isi, ming t.	94,2	85,8	-8,4
Avtomobil benzini, ming t.	185,3	196,0	10,7

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan disodiyum karbonati (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 113,5 %) mahsulotlarida o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi. Shuningdek, vinilpolimerlari asosidagi bo'yoq va lak mahsulotlari (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 106,7 %) hamda Karbomid (114,0 %) ishlab chiqarish sanoatida oshganligi kuzatildi.


**Disodiyum karbonati**

108,0 %

2020- yil

93,0 %

2021- yil

113,5 %

2022- yil


**Kaliy xlorid**

108,0 %

2020- yil

99,0 %

2021- yil


93,4 %

2022- yil

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

### Metallurgiya sanoati

2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 30,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 5,4 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 28,4 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 4,0 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 14 982,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 2011,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 6736,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1184,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 111,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 6,7 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 9073,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 105,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 %, fizik hajm indeksi 98,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1522,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.







### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 104,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,5 % ni, fizik hajm indeksi 95,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 928,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-fevral oyi yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 68,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni, fizik hajm indeksi 59,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1103,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 100,4 % .


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 121,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 694,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr uskunalar ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 119,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni, fizik hajm indeksi 82,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 216,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 101,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 039,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 49,6 % .


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,4 % ni, fizik hajm indeksi 193,1 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 5 469,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,1 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,1 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 115,8 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	11 953,5	12 535,6	582,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	7 085,4	6 408,9	-676,5

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,4 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	42,9	55,9	13,0
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	81,3	82,7	1,4
To'qimachilik chiqindilari, t	2 257,6	2 720,7	463,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 30,1 % ga hamda to'qimachilik chiqindilarining 20,5 % ga hamda axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,7 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 20,0 trln.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-fevral oylari mos davriga nisbatan 127,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 30,0 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar-fevral

40,5%

2022- yil  
yanvar-fevral

35,8%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil  
yanvar-fevral

59,5%

2022- yil  
yanvar-fevral


64,2%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,3 % (2021- yilning yanvar-fevral oylarida 7,2 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to'g'ri kelib, 19,6 % ni va Toshkent shahri 19,3 % ni, Toshkent viloyati 13,8 % ni hamda Samarqand viloyati 11,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida respublika o'sish sur'ati (127,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Andijon (165,3 %), Sirdaryo (143,1 %) hamda Samarqand viloyatlarida (139,8 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

*Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to'g'ri kelib, 19,6 %, shuningdek, Toshkent shahri 19,3 % ni, Toshkent viloyati 13,8 % ni, Samarqand viloyati 11,9 % ni tashkil etdi.*


**15 517,9 mlrd. so'm**


2020- yil yanvar-fevral

**15 165,9 mlrd. so'm**

2021- yil yanvar-fevral

**20 026,7 mlrd. so'm**

2022- yil yanvar-fevral



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020- yil

**106,6 %**

2021- yil

**90,6 %**

2022- yil

**127,1 %**



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to'g'ri kelib, 28,0 %, shuningdek, Toshkent shahri 18,4 % ni, Samarqand viloyati 12,2 % ni, Toshkent viloyati 9,7 % ni tashkil etdi.

**10 522,7** mlrd. so'm


2020- yil yanvar-fevral

**9 026,1** mlrd. so'm


2021- yil yanvar-fevral

**12 862,9** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-fevral



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

## Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent viloyatiga to'g'ri kelib, 21,1 % ni, shuningdek, Toshkent shahri 20,9 % ni, Samarqand viloyati esa 11,9 % ni tashkil etdi.



**O‘zbekiston Respublikasi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent viloyatiga to‘g‘ri kelib, 19,0 % ni, shuningdek, Navoiy viloyati 18,8 % ni hamda Toshkent shahrida esa 14,6 % ni tashkil etdi.*

**O‘zbekiston Respublikasi**

2020- yil

51 534,1 mlrd. so‘m

2021- yil

55 281,3 mlrd. so‘m

2022- yil

66 734,7 mlrd. so‘m



2020- yil

101,5 %

2021- yil

101,0 %

2022- yil

107,4 %

Toshkent sh.

110,8

9772,4

Xorazm

116,5

2380,2

Farg‘ona

105,4

3471,9

Toshkent

109,5

12670,8

Sirdaryo

112,3

1733,6

Surxondaryo

106,5

834,9

Samarqand

111,4

3290,5

Namangan

105,5

1953,0

Navoiy

104,8

12531,5

Qashqadaryo

105,1

3083,3

Jizzax

106,1

1198,3

Buxoro

92,6

2645,8

Andijon

149,1

5516,1

Qoraqalpog‘iston  
Resp.

102,6


2767,9

FHI, % da

mlrd. so‘m

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy (12 240,8 ming so'm), Toshkent (4 344,1 ming so'm) viloyatlarida hamda Toshkent shahrida (3 466,1 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (1 911,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



O'zbekiston Respublikasi

2020- yil

1 519,9 ming so'm

2021- yil

1 614,9 ming so'm

2022- yil

1 911,3 ming so'm



2020- yil

100,5 %

2021- yil


99,1 %

2022- yil

105,3 %

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 11,9 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 17,8 % ni tashkil etdi.



## Oʻzbekiston Respublikasi

2020- yil

13 408,3 mlrd. soʻm

2021- yil

11 838,0 mlrd. soʻm

2022- yil

11 866,5 mlrd. soʻm



2020- yil

26,0 %

2021- yil

21,4 %



2022- yil

17,8 %

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 573,6 ming so'm bo'lgani holda, Toshkent shahrida – 1373,3 ming so'mni, Andijon viloyatida – 1 219,5 ming so'mni, Toshkent viloyatida – 947,1 ming so'mni va Xorazm viloyatida – 700,3 ming so'mni tashkil etdi.


### O'zbekiston Respublikasi





Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda respublikada 92,0 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 16,2 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,6 % i) Toshkent shahriga, 10,0 mingtasi (10,9 %) Farg'ona viloyatiga, 9,5 mingtasi (10,3 %) Andijon viloyatiga, 9,4 mingtasi (10,2 %) Toshkent viloyatiga va 8,2 mingtasi (8,9 %) Samarqand viloyatiga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil  
2 913 dona

2021- yil  
3 570 dona

2022- yil  
2 496 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil  
72 597 dona

2021- yil  
86 178 dona

2022- yil  
92 040 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan